

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ALIYEV ELMUROD BOTIRJONOVICH

**CHIGITNI TA'MINLASH BARABANINING SAMARALI
KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQISH VA PARAMETRLARINI
ASOSLASH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Aliyev Elmurod Botirjonov

Chigitni ta'minlash barabanining samarali konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash..... 3

Алиев Элмурод Ботиржонович

Разработка эффективной конструкции питательного барабана и обоснование его параметров..... 21

Aliev Elmurod Botirjonovich

Development of an efficient design of a feed drum and justification of its parameters..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 42

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ALIYEV ELMUROD BOTIRJONOVICH

**CHIGITNI TA'MINLASH BARABANINING SAMARALI
KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQISH VA PARAMETRLARINI
ASOSLASH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4673 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertasiya ishi Namangan muhandislik – texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamaxonov A’zam Abdumajitovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sayidmurodov Mirzoxid Mirzraximovich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Turdaliyev Voxid Maqsudovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertasiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «02» may soat 14⁰⁰ da o‘tkaziladigan majlisida bo‘ladi (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (99869) 228-76-75; faks: (99869) 228-76-71; e-mail: niei_info@edu.uz).

Dissertasiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (380 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel.: +99869 228-76-75; faks: +998 69 228-76-71).

Dissertasiya avtoreferati 2025 yil «16» aprel kuni tarqatildi.

(2025 yil «22» feraldagi 29/3-raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

Sh.Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

N.M.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mashinasozlikning barcha tarmoqlarida resurstejamkor, ish unumi yuqori, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiquvchi texnologik mashina va mexanizmlarning samarali konstruksiyalarini yaratish hamda ularni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. «Dunyo bo'ylab avtomatik boshqaruv tizimlari asosida ishlaydigan energiya tejamkor texnologik mashinalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati mavjudligini inobatga olsak»¹, texnologik jarayonlarni bajarishda samarali, ishonchli ishlay oladigan ta'minlash qurilmalarini yaratish hamda yuritma uzatmalarini takomillashtirish amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, energiya tejoyvchi, ish unumi barqaror bo'lgan ta'minlash qurilmalarini yaratish hamda zarb kuchlarini kamaytiradigan qayishqoq elementli zanjirli uzatmalardan uning yuritmalarida keng foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda mashinasozlikning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, ta'minlash qurilmalarini ishonchli, resurstejamkor hamda zanjirli uzatmalarning kinematik va dinamik imkoniyatlari keng bo'lgan turlarini yaratishni; shuningdek, ularni hisoblashning fundamental asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot izlanishlari olib borilmoqda. Bu borada, ayniqsa, ta'minlash qurilmalarining ish unumdorligi yuqori va aniq bo'lgan konstruksiyalarini yaratish hamda zanjirli uzatmalarda ishqalanishni, yeyilishni, shovqin va titrashni kamaytirish, jumladan, yog'-moy sanoatining turli texnologik mashinalari yuritmalarida ishlatiladigan texnologik jarayonga moslashadigan, tarkibli, qayishqoq elementli zanjirli uzatmalarning konstruksiyalarini yaratish, ularning texnik parametrlarini asoslash bo'yicha maqsadli ilmiy izlanishlarni olib borishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda mashinasozlikni jadal rivojlantirish, resurstejamkor mashina va mexanizmlar konstruksiyalarini yangi samarali turlarini yaratish bo'yicha chuqur fundamental hamda amaliy tadqiqotlar olib borish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda; jumladan, ta'minlash qurilmalarini samarali, resurstejamkor konstruksiyalarini ishlab chiqish, yuritish mexanizmlari uchun kinematik va dinamik imkoniyatlari keng bo'lgan zanjirli uzatmalarning yangi konstruksiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, «...sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, yog'-moy sanoatidagi ta'minlash qurilmasining energiya va resurstejamkor konstruksiyasini yaratish, yuritish mexanizmi uchun tarkibli qayishqoq elementli zanjirli uzatmalarning yangi istiqbolli konstruksiyalarini ishlab chiqishning fundamental asoslarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-416 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish" to'g'risidagi Qarori, 2018-yil 19-yanvardagi PQ-3484 son "Yog'-moy tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Qarori, O'zbekiston

¹ <https://www.usaid.gov/energy/efficiency/basics/technologies>

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi “Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II “Energetika, energiya va resurstejamkor texnologiyalari, resurstejamkorlik” ustivor yo‘naishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Dunyo olimlari tomonidan yuqori unumdorlik ko‘rsatkichi barqaror yuqori unumdorlik ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan ta‘minlash barabani va texnologik mashinalar yuritmalari uchun samarali uzatish mexanizmlari konstruksiyalarini yaratish, nazariy asoslarini o‘rganish, texnik-texnologik imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ta‘minlash qurilmalarining samarali konstruksiyalarini yaratish, texnologik parametrlarini asoslash, oqim parametrlarini optimallashtirish va tadqiq etish bilan xoriyda Jie Guo, A.W.Jenike, A.W.Roberts, E.J.Benink, K.Shinohara, Y.Idemitsu, K.Gotoh, T.Tanaka, H.Janssen, W.Reisner, M.E.Rothe, J.Schwedes, D.Schulze, G.G.Enstad, A.W.Roberts, D.M.Walker, J.K.Walters, K.Shinoharalar shug‘ullanishgan.

James C. Conwel, G.E. Johnson, R.A. Morrison, R.Ch. Binder, G. Bouillon, G.V. Tordion, C.K. Chen, F. Freudenstein, N. Fuglede, J.J. Thomsen, S.L. Pedersen, J.M. Hansen, J.A.C. Ambrosio, A.L. Thurman, C.D. Mote, S.T. Ariaratnam, S.F. Asokanthan, H. Zheng, Y.Y. Wang, G.R. Liu va boshqa olimlar tomonidan texnologik mashinalar yuritmalari uchun resurstejamkor zanjirli uzatmalar konstruksiyalarini ishlab chiqish, ularning kinematik va dinamik imkoniyatlarini kengaytirish kabi dolzarb masalalar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Mazkur yo‘nalishda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlarining taniqli olimlari - Н.С. Ачеркан, Н.В. Воробьев, Д.Н. Решетов, И.П. Глушенко, И.И. Ивашков, А.А. Петрик, Г.Б. Столбин, А.А. Готовцев, Г.К. Рябов, С.А. Метильков, А.В. Пунтус, С.А. Дубиняк, П.Н. Учаев, О.И. Остапенко, С.Б. Бережной va boshqalar ham muhim ilmiy izlanishlar olib borgan.

Respublika olimlari - X.X. Usmonxo‘jayev, A. Jo‘rayev, K.A. Karimov, R.I. Karimov, Sh.P. Alimuxamedov, A. Aizayev, X.T. Ahmedxo‘jayev, R.M. Muradov, J. Muhammadov, V.M. Turdaliyev, A. Mamaxonovlarning tadqiqot ishlari esa texnologik mashinalarning yangi, samarali konstruksiyalarini yaratish hamda yuritma mexanizmlari uchun kinematik va dinamik imkoniyatlari kengaytirilgan konstruksiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda tukli chigitning fizik-mexanik xossalarini inobatga oluvchi ta‘minlash qurilmasi uchun vibratsion harakatlanuvchi baraban konstruksiyalarini yaratish, oqim parametrlarini asoslash hamda texnologik yuklanishga moslashuvchan zanjirli uzatma konstruksiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya institutining YoF-2-3 “Texnologik mashinalar

uzatmalaridagi tarkibli yulduzchali va qayishqoq taranglash rolikli, resurstejamkor zanjirli uzatmalarning kinematik va dinamik hisoblashning ilmiy asoslari (2016-2017)”, YoOT-Atex-2018-93 “O‘simliklardan yog‘ ishlab chiqarish texnologik mashinalari yuritmasidagi zanjirli uzatmalari resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini hisoblash (2018-2019)” mavzularidagi fundamental va amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Tukli chigitni ta‘minlash barabani va unga harakatni uzatuvchi resurstejamkor samarali qayishqoq elementli zanjirli uzatmalar konstruksiyalarini yaratish hamda ularning ishchi parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tukli chigitning fizik-mexanik xossalarini aniqlash va mos holda ta‘minlash qurilmasining vibratsion harakatlanuvchi va samarali barabani konstruksiyasini ishlab chiqish,

texnologik mashinalar yuritmalari uchun qayishqoq elementli zanjirli uzatmalarning samarali konstruksiyalarini ishlab chiqish,

tukli chigitning fizik - mexanik hossalarni inobatga oluvchi, oqim parametrlarini ifodalovchi qonuniyatlarni olish,

yuritmaning kinematik hisobi asosida tarkibli rolikli zanjirli uzatmaning parametrlarini aniqlash,

ta‘minlash barabanining statik va dinamik tebranishlarini nazariy va amaliy tadqiq etish,

ta‘minlash qurilmasi quvvat parametrlarini avtomatik nazorat qilish interfeys dasturini ishlab chiqish,

ta‘minlash barabani va zanjirli uzatmalarning tajribaviy nusxalarini yaratish, ishchi valdagi kinematik va dinamik parametrlarni tajribaviy usulda ishchi rejimlarda o‘lchash,

ishlab chiqarish sharoitida yangi zanjirli uzatmasi bo‘lgan ta‘minlash qurilmasini sinovdan o‘tkazish,

texnologik parametrlarni aniqlash hamda ishlab chiqarishga qo‘llash uchun tavsiyalar ishlab chiqish, iqtisodiy samaradorlikni aniqlash.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida, yog‘- moy sanoatida bunkerdagi chigitni linterlash mashinalariga ta‘minlab beruvchi qurilma barabani va uning yuritmasidagi zanjirli uzatmasi olingan.

Tadqiqotning predmetini. Ta‘minlash barabani va zanjirli uzatmalar konstruksiyalari, kinematik va dinamik bo‘g‘lanishlari, ta‘minlash parametrlari va ularning xarakteristikalari, hisoblash sxemalari, matematik va dinamik modellari, harakat qonunlari hamda parametrlarining tavsiya etilgan qiymatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ta‘minlash barabani va qayishqoq elementli zanjirli uzatmadagi yuklanishlar, tebranish va harakat qonunlarini aniqlashda oliy matematika, materiallar qarshiligi, mashina va mexanizmlar nazariyasi, tebranishlar nazariyasi, mashinalar dinamikasi, ishchi qismlarining harakat rejimlarini asoslashda mashinasozlik va texnologik mashinalarni sinash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chigitning bunker devoridagi ishqalanish koeffitsiyenti va barabanning tebranma harakatini inobatga olgan holda bunker chiqish teshigidagi vertikal bosimni, ta'minlash barabaniga ta'sir etuvchi yuklanishni, chigit qatlamini kesuvchi kuchni, chigit oqimi miqdorini aniqlashning matematik modeli ishlab chiqilgan,

tashqi kuch ta'siridagi baraban bo'lagining tebranish qonuniyatini ifodalovchi dinamik modeli olinib, prujina bikirligining ortishi baraban tebranish chastotasini ortishiga olib kelishi aniqlangan. Prujina bikirligi, baraban bo'lagining tebranish chastotasi bo'lganda chigit oqimini bir me'yorda bo'lishi asoslangan,

vibratsion baraban va uni harakatga keltiruvchi tarkibli rolikli zanjirli uzatmani qo'llanilganda ta'minlash unumdorligi 1,13 martaga ortganligi, zanjirli uzatmaning ishlash resursi 1,15 martaga ortganligi aniqlangan,

tajribaviy usulda vibratsion baraban va uni harakatga keltiruvchi tarkibli rolikli zanjirli uzatma ta'minlash qurilmasida qo'llanilganda ta'minlash barabani validagi burovchi moment va aylanish chastotasini o'zgarish qonuniyatlari ta'minlash unumdorligiga bog'liq ravishda bo'lishi va burovchi moment tebranish oralig'ining chiziqsiz qonuniyatda ortishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Chigitni fizik-mexanik xossalariga mos holda oqim parametrlarini uzluksiz ta'minlash imkonini beruvchi ta'minlash barabani qurilmasi va uning yuritmasi uchun zanjirli uzatmaning resurstejamkor konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

Vibratsion harakatlanuvchi baraban joriy etilishi natijasida, chigitni ta'minlanish jarayoni uzluksizligi ta'minlangan. Natijada chigitni ta'minlash unumdorligi mavjud baraban ishlatilgan holga nisbatan 1,13 martaga yuqori bo'lgan. Ta'minlash qurilmasi yuritmasidagi mavjud zanjirli uzatma ishchi resursi 1,0 bo'lganda, tavsiya etilgan qayishqoq elementli zanjirli uzatma ish resursi 1,15 ya'ni, 15% ga ortiq bo'lgan, zanjirli uzatmada zanjir bo'lagining nisbiy uzayishi 2,4% bo'lsa, tavsiya qilingan zanjirli uzatmada zanjir bo'lagining nisbiy uzayishi 1,2%ni tashkil etganligi hisobiga energiya va resurs sarfi kamayishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Izlanishlarning zamonaviy usullar va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan zanjirli uzatmalar konstruksiyalari va texnologik mashinalar yuritmalariga tadbiiq etib, olingan nazariy ko'rsatkichlarni ishlab chiqarish sinovlari ko'rsatkichlari bilan taqqoslash natijalari orqali asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tukli chigitlarning hosildor navlarining fizik-mexanik xossalarini aniqlanganligidadir, bunker devoridagi ishqalanish koeffisienti va barabanning tebranma harakatini inobatga olgan holda bunker chiqish teshigidagi vertikal bosim, ta'minlash barabaniga ta'sir etuvchi yuklanish, chigit qatlamini kesuvchi kuch, chigit oqimi miqdorini aniqlash qonuniyatlari, bog'lanish grafiklari, shuningdek tarkibli rolikli zanjirli uzatmani asosiy parametrlarini aniqlash ifodalari, ta'minlash

barabanining tebranma harakatini ifodalovchi dinamik modeli, ta'minlash qurilmasining asoslangan parametrlari qiymatlari, texnologik mashinalar yuritmalarini hisoblash nazariyasi, mashina detallarini fanini zanjirli uzatmalarini hisoblash metodlari nazariy asoslarini to'ldirilganligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati yaratilgan ta'minlash barabani va uni harakatga keltiruvchi samarali zanjirli uzatmalarining konstruksiyalari ishlab chiqilganligi hamda ularni yog'moy sanoati mashina agregatlarida qo'llanilganligi, ish unumi va resursini ortganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta'minlash qurilmasi barabani va uni harakatga keltiruvchi zanjirli uzatmalarining yangi, resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Qayishqoq elementli zanjirli uzatmalar konstruksiyasilariga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining 2 ta ixtiro va 1 ta foydali modelga patentlari olingan. Natijada, ta'minlash barabani yuritmalarida harakatni uzatish mexanizmlari ishlash muddati va ishonchligini oshirish, ish zonalarida shovqin darajasini kamaytirish imkoni yaratilgan;

Ta'minlash barabani va unga harakatni uzatish mexanizmlari ratsional parametrlari "Namangantolatekstil" MChJda joriy etilgan (Yog'moy sanoati korxonalari uyushmasining 2024 yil 30 avgustdagi KC/3-291-son ma'lumotnomasi). Natijada texnologik tizimda tukli chigit ta'minlanishini uzluksiz bir me'yorda ta'minlanishi yo'lga qo'yilgan va yuritmalarining to'xtalishlar sonini o'rtacha 2 marta kamayishiga, chigitni linterlash mashinalariga taqsimlab beruvchi baraban yuritmasining ish unumi yillik 1,13 marta oshishiga hamda yuritmalarining ishchi resursi 1,15 marta oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Dissertatsiyaning tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, shuningdek, 1 ta monografiya chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk markazining ixtiro uchun 2 ta va foydali model uchun 1 ta patenti, EHM uchun 1 ta dasturiy guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning obyekti va mavzusi tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi

berilgan, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Sochiluvchan mahsulotlarni ta'minlash qurilmalari va zanjirli uzatmalarning samarali konstruksiyalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida sochiluvchan mahsulotlarni ta'minlash qurilmalari va texnologik mashinalar yuritmalarida qo'llaniladigan zanjirli uzatmalarning konstruktiv xususiyatlari tahlili keltirilgan. Ta'minlash qurilmasining samarali konstruksiyasini ishlab chiqish asosida, bugungi kunda yuqori hosildorlikka ega chigit navlarining fizik-mexanik xossalari tadqiqi amalga oshirilgan.

Tukli chigitning fizik-mexanik xossalari zamonaviy tajriba qurilmalari vositasida aniqlandi: nisbiy namlik $M_n = 9,4383\%$; chigitning o'rtacha uzunligi $l_{ch} = 9,65 \text{ mm}$; eni $b_{ch} = 5,37 \text{ mm}$; qalinligi $h_{ch} = 5,40 \text{ mm}$; o'rtacha geometrik diametri $D_g = 6,54 \text{ mm}$; o'rtacha arifmetik diametri $D_a = 6,8 \text{ mm}$; hajmi $V_{ch} = 147,2 \text{ mm}^3$; sferikligi $\Phi = 67,80\%$; yassi yuzasi $A_f = 43,22 \text{ mm}^2$; ko'ndalang sirt yuzasi $A_t = 22,82 \text{ mm}^2$; kontakt yuzasi $C_{ch} = 46,46 \text{ mm}^2$; sirt yuzasi $A_{ch} = 131 \text{ mm}^2$; bir dona chigitning o'rtacha massasi $m_{ch} = 0,1102 \text{ g}$; hajmiy zichligi $\rho_h = 0,4696 \text{ g/cm}^3$; haqiqiy zichligi $\rho_x = 1,086 \frac{\text{g}}{\text{cm}^3}$; g'ovaksimonligi $P_f = 56,45\%$; proyeksiya yuzasi $47,35 \text{ mm}^2$; muvozanat burchagi $\phi = 46^{\circ}40'$, statik ishqalanish koeffitsienti, yumshoq po'latda $\mu = 0,34$; fanerada $\mu = 0,36$ va shishada $\mu = 0,23$ ni tashkil etdi. Shuningdek, tukli chigitlarning o'rtacha yorilish kuchi $F = 61,24 \text{ N}$ ni tashkil etgan bo'lsa, deformatsiya nisbatining o'rtacha qiymati $4,32\%$ ga tengligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Chigitni ta'minlash kompleks qurilmasi konstruksiyasini ishlab chiqish va yuritma uzatish mexanizmlarini loyihalash”** deb nomlangan ikkinchi bobida tukli chigitning fizik-mexanik xossalari muvofiq, chigitni ta'minlash qurilmasining samarali konstruksiyasi ishlab chiqildi.

Taklif etilgan tukli chigitni taqsimlash barabani konstruksiyasi 1-rasmda keltirilgan. Ta'minlash barabani: val (1), trapetsiyasimon shaklli diska (2) va unga payvandlash yo'li bilan mahkamlangan chorak qisimli baraban bo'laklari (3), baraban sirtida joylashgan planka (4), baraban bo'lak (3)larini orasidagi tirqishlarni yopib turuvchi rezina tiqin (5) hamda trapetsiya shaklli sterjenlarning og'irlik markazlarini bog'lovchi bikrligi k_1 (6) va k_2 (7) bo'lgan prujinalardan iborat. Konstruksiya quyidagi tartibda harakatlanadi: Val (1) dan harakat trapetsiya shaklli disk (2) orqali baraban (3) sirtida joylashgan plankalar (4) ga uzatiladi. Bunker chiqish teshigidagi chigit qatlami baraban planka (4) lari orqali ma'lum qalinlikda kesib olinib, aylanma harakat orqali keying bosqichga uzatiladi. Bu jarayon baraban bo'laklari plankalarining har biri bilan takrorlanadi. Chigit qatlamini kesish natijasida yuzaga keluvchi qarshilik kuchi o'z navbatida planka (4) ga ta'sir qilganda uni aylanish harakatiga qarama-qarshi tomonga buraydi. Baraban (3)ning chorak bo'lagi ham val (1) ga nisbatan aylanish yo'nalishiga teskari tarzda kichik qiymatda deformatsiyalanadi. Bu esa o'z navbatida trapetsiyasimon shaklli disk (2)larga mahkamlangan (bikrliklari ikki xil bo'lgan) prujinalarni kichik qiymatda birini cho'zilishiga sabab bo'lsa, ikkinchisini siqilishiga sabab bo'ladi. Prujina (6) va (7) larning bikirliklarining o'zaro farqi hisobiga yig'ilgan potensial energiya o'z navbatida baraban bo'lagi (3) va unda joylashgan planka (4)

larni kichik qiymatda tebranishini ta'minlaydi. Buning natijasida ilashishda bo'lgan tukli chigit qatlamining tebranishi yuzaga keladi. Bu esa baraban (3) planka (4) lari oraliqlarini chigit bilan to'lish samaradorligini oshirib, chigitning bunkerdagi oqimi uzluksizligini ta'minlaydi. Deformatsiyalanish natijasida yuzaga keluvchi baraban bo'laklari orasida tirqishlar, rezina (5)lar orqali doimo yopilib turadi. Bu esa chigitlarni baraban ichiga tushib ketish holatini oldini oladi.




1-rasm. Paxta chigitini ta'minlash qurilmasi.

- a)-qulmaning umumiy ko'rinishi;
- b)-ta'minlash barabani;
- c)-baraban tuzilish sxemasi;

Sochiluvchan mahsulotlarni ta'minlash qurilmalarining konstruktiv xususiyatlari va zanjirli uzatmalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili asosida texnologik yuklanishlarga moslashuvchan zanjirli uzatmalarning samarali konstruksiyalari ishlab chiqildi (2-rasm).

Taklif etilayotgan zanjirli uzatma konstruksiyasi yetakchi yulduzcha (1), yetaklanuvchi yulduzcha (2) va ularni qamrovchi zanjir (3), taranglovchi rolik (4) dan iborat. Yetaklanuvchi yulduzcha tarkibli qilib tayyorlangan bo'lib, tashqi qism tish gardishi (2), asos (6), chiquvchi val (7) va qayishqoq vtulka (5) dan iborat. Zanjir (3) ichki (9) va tashqi (8) plastinalar, valik (10), vtulka (11) hamda tarkibli rolik (12) dan iborat. Tarkibli rolik ichki (13) va tashqi (14) vtulkalar hamda ularning oralig'ida joylashgan qayishqoq element (rezina 15) dan iborat. Qayishqoq element (15) tashqi sirti (16) botiq ko'rinishga ega bo'lib, tashqi vtulka (8) ning ichki tomoniga mos holda tayyorlangan. Yetakchi yulduzcha (1) dan yetaklanuvchi yulduzcha (2) ga harakat zanjir (3) orqali uzatiladi. Keyinchalik harakatni yetaklanuvchi yulduzcha (2)

qayishqoq vtulka (5) va asos (6) orqali chiquvchi val (7) ga uzatiladi. Zanjir (3) va yulduzcha (2) o'rtasida hosil bo'luvchi ishqalanish kuchi va boshqa zararli kuchlar qayishqoq element (5) orqali o'tayotganda bir qadar so'nishi kuzatiladi. Yetakchi (1) va yetaklanuvchi (2) yulduzchalar bilan zanjir (3) ta'sirlashganda, zanjir roligi (12) tarkibidagi qayishqoq element (15) ning deformatsiyalanishi hisobiga vtulka (13) hamda yetakchi (1) va yetaklanuvchi (2) yulduzchalarning ishchi yuzalari yeyilishi kamayadi. Qayishqoq element (15) ning deformatsiyalanishi hisobiga vtulka (11) va valik (10) o'rtasidagi ishqalanish ham kamayadi. Bu esa uzatma elementlari ishlash muddatini ortishiga olib keladi. Ishlash davomida rezina vtulka (15) ning sirti (16), rolik (12) ga yetakchi (1) va yetaklanuvchi (2) yulduzchalardan ta'sir etuvchi bosim kuchlarini markazlashtirish maqsadida botiq shaklda bo'lishi tavsiya etilgan. Tarkibli rolik (12) tarkibidagi qayishqoq element tashqi bosim kuchlarini maromlashtiradi. Bu esa zanjir ishlash muddatini ortishiga sabab bo'ladi.



2- rasm. Qayishqoq elementli zanjirli uzatma sxemasi

Taklif etilayotgan ta'minlash barabanining chigitni uzatish imkoniyati tadqiqi amalga oshirildi. Chigit bilan to'ldirilgan bunkerda yuzaga keluvchi vertikal bosim qiymati,

$$P_V = \frac{\rho h \cdot g \cdot A}{\mu \cdot K \cdot C} \cdot \left(1 - \frac{1}{e^{\frac{K \cdot \mu \cdot C \cdot h}{A}}} \right), \quad (1)$$

ta'minlash barabaniga ta'sir etuvchi yuklanish qiymati,

$$Q_y = \frac{\rho h \cdot g \cdot A}{\mu \cdot K \cdot C} \cdot \left(1 - \frac{1}{e^{\frac{K \cdot \mu \cdot C \cdot h}{A}}} \right) \cdot lb, \quad (2)$$

chigit qatlamini kesib oluvchi kuchning qiymati,


$$F_k = \mu_E \cdot \frac{\rho h \cdot g \cdot A}{\mu \cdot K \cdot C} \cdot \left(1 - \frac{1}{e^{\frac{K \cdot \mu \cdot C \cdot h}{A}}} \right) \cdot lb, \quad (3)$$

ta'minlash barabani validagi burovchi momentni aniqlash ifodalari olindi:

$$T_b = \frac{30 \mu_E \cdot \frac{\rho h \cdot g \cdot A}{\mu \cdot K \cdot C} \cdot \left(1 - \frac{1}{e^{\frac{K \cdot \mu \cdot C \cdot h}{A}}} \right) \cdot lb \cdot v_B}{\pi n_b}. \quad (4)$$


Bunker teshigidagi vertikal bosim P_v qiymatini tukli chigitning bunker devoridagi ishqalanish koeffitsiyenti μ ga bog'liqlik grafiklari bunkerda yuzaga keluvchi normal va vertikal bosim nisbatlarini ifodalovchi K ning turli qiymatlarida olindi (3-rasm). Tukli chigit va bunker devori orasidagi ishqalanish koeffitsiyentining ortishi, bunker

chiqish teshigidagi bosimning kamayishiga olib kelishi, buning natijasida chigit oqimining tezligi susayishi va ta'minlash jarayoniga salbiy ta'sir etishi aniqlandi. Bunker va tukli chigit orasidagi ishqalanish koeffitsiyentining $\mu=0,3154$ va $K=0,16$ qiymatlarida bunker chiqish teshigidagi vertikal bosim qiymati taqriban 22,96 kPa bo'lishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi.



3-rasm. Bunker chiqish teshigidagi vertikal bosim qiymatini chigit va bunker devori orasidagi ishqalanish koeffitsiyentiga bog'liqlik grafiqi

Bunker teshigidagi yuklanish Q_y qiymatining o'zgarishini chigitni kesib oluvchi F_k kuchga bog'liqlik grafiqlari (μ ning turli qiymatlarida) olindi (4-rasm). Chigitni qatlamini kesib oluvchi kuch qiymatini $F_k = 15 \cdot 10^3 N$ qiymatda bo'lishi texnologik jarayon uchun maqbul hisoblanadi.



4-rasm. Bunker teshigidagi yuklanish qiymatining o'zgarishini chigitni kesib oluvchi kuchga bog'liqlik grafiqi

Dissertatsiyaning “Chigitni ta'minlash qurilmasi parametrlarini asoslash” deb nomlangan uchinchi bobida chigitni ta'minlash qurilmasi uchun samarali yuritma tarkibi ishlab chiqilib, unda barabanni harakatga keltiruvchi tarkibli rolikli zanjirli uzatmani qo'llash tavsiya etildi. Zanjirli uzatma zanjiri qadamini aniqlashda tarkibli rolikning zarb kuchlarini yutish xususiyatini inobatga oluvchi ($\xi = 0,92$ tarkibli rolikning qayishqoq elementi bikirligini inobatga oluvchi koeffitsiyent) ifoda olindi:

$$p = 2,8^3 \sqrt{\frac{T_{z1} K_e \xi}{z_1 [p] m}} \quad (5)$$

Ta'minlash barabani uchun taklif etilgan zanjirli uzatmaning tavsiyaviy parametrlari 1-jadvalda keltirildi.


Baraba uchun taklif etilgan zanjirli uzatmaning tavsiyaviy parametrlari

p, mm	z_1	z_2	d_1, mm	d_2, mm	$\omega_1, \frac{rad}{s}$	$v_z, \frac{m}{s}$	L	Rolik tarkibidagi rezina markasi	a_w, mm
44,45	17	68	241,905	962,465	$0,837 \div 1,256$	$0,1 \div 0,15$	105	14-TMKIII	1340,45


Ta'minlash barabanining ishchi parametrlarini asoslash maqsadida baraban chorak bo'lagi uchun hisob sxemasi ishlab chiqildi (5-rasm). Sxemaga muvofiq ta'minlash barabani aylanma harakatining differensial tenglamasi olindi:

$$I_z \cdot \ddot{\varphi} = 2l \left[\mu_E \cdot \frac{\rho h \cdot g \cdot A}{\mu \cdot K \cdot C} \cdot \left(1 - \frac{1}{e \frac{K \cdot \mu \cdot C \cdot h}{A}} \right) \cdot lb \right] - 3c_1 \cdot l^2 \cdot \cos \alpha \cdot \varphi + m(\omega - \dot{\varphi}). \quad (6)$$

Prujina bikrligi c_2 ning turli qiymatlarida baraban bo'lagining vaqtga bog'liq ravichda burchak siljishi qonuniyatini ifodalovchi grafiklar olindi (6-rasm).




5-rasm. Ta'minlash barabanining hisob sxemasi




6-rasm. Baraban bo'lagi burchak siljishining vaqtga bog'liq o'zgarish grafiklari

Barabanda joylashgan prujinalarning bikrligi $c_1=1,75 \cdot 10^5$, $c_2=3,5 \cdot 10^5$ N/m bo'lganda, tebranish chastotasining qiymati: $w = 42,11 Hz$, amplituda qiymati: $A_b = 0,06 rad$ bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lishi aniqlandi. Prujina bikirligini ortirishini sterjen tebranish chastotasiga bog'liqlik grafigi olindi (7-rasm).


Chigitni ta'minlash qurilmasi quvvat parametrlarini avtomatik nazorat qilishning interfeys dasturi ishlab chiqildi (8-rasm). Ushbu dastur orqali texnologik jarayonni nazorat qilish orqali energiya samaradorligiga erishish imkoniyati aniqlandi.




7-rasm. Prujina bikirligini ortishini sterjen tebranish chastotasiga bog‘liqligi



a)



b)



c)

8-rasm. Elektrodvigatel quvvatini real vaqt rejimidagi holatlari

- a) yuklanishning normal holati;
- b) yuklanish me'yoridan ortgan holati;
- c) yuklanish me'yoridan kamaygan holati;


Dissertatsiyaning “Ta’minlash barabani agregati va uning yuritmasidagi zanjirli uzatmaning tajribaviy tadqiqotlari hamda iqtisodiy samaradorlikni aniqlash” deb nomlangan to’rtinchi bobida ta’minlash barabani validagi burovchi moment va burchak tezlik qiymatlari o’zgarishini chigitni uzatish samaradorligiga ta’siri o’rganildi.

Barabandagi prujinalar hisobiga yuzaga keluvchi inertsiya-impuls kuchlarini agregatning ish unumdorligiga ta’siri o’rganildi (9-rasm). Tajriba sinovlari barabanning burchak tezligi: $\omega = 0,21; 0,26; 0,31 \frac{rad}{sek}$, texnologik qarshilik momenti: $M = 2 \cdot 10^3; 2,5 \cdot 10^3; 3 \cdot 10^3 Nm$ qiymatlarida amalga oshirildi. Barabandagi prujina va zanjir qayishqoq elementining bikirliklarini ishchi valning kinematik va dinamik parametrlariga ta’siri o’rganildi.




9-rasm. Ta'minlash barabaning tajribaviy konstruksiyasi

10-rasmda baraban prujinalarining bikirligi $c_1 = 1,5 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$, $c_2 = 3 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$ zanjir roligidagi qayishqoq vtulka 14D-MBS markali rezina, baraban valining burchak tezlik qiymati $\omega_b = 0,21 \frac{rad}{sek}$, texnologik qarshilik orqali yuzaga keluvchi moment qiymati $M_q = 2 \cdot 10^3 Nm$ bo'lgan holi uchun aniqlandi.




a)



b)


10-rasm. Prujinalarining bikirligi $c_1 = 1,5 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$, $c_2 = 3 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$ baraban validagi burovchi moment (a) va burchak tezlik (b) qiymatlarini vaqtga bog'liq holda o'zgarishini ifodalovchi otsillogrammalar

Prujinalar bikirligi $c_1 = 1,75 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$ $c_2 = 3,5 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$, zanjir roligidagi qayishqoq vtulka TMKII-C1009 markali rezina, baraban valining burchak tezlik qiymati $\omega_b = 0,26 \frac{rad}{sek}$, texnologik qarshilik orqali yuzaga keluvchi moment qiymati $M_q = 2,5 \cdot 10^3 Nm$ bo'lgan hol uchun ishchi valdagi burovchi moment va burchak tezlik qiymatlarini o'zgarishini ifodalovchi otsillogrammalar olindi.




11-rasm. Prujinalar bikirligi $c_1 = 1,75 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$ $c_2 = 3,5 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$, baraban validagi burovchi moment (a) va burchak tezlik (b) qiymatlarini vaqtga bog'liq holda o'zgarishini ifodalovchi otsillogrammalar

Yuqoridagi grafiklar tahliliga asoslangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, ta'minlash barabani qurilmasi uchun taklif etilayotgan baraban prujinalarning bikirligi, $c_1 = 1,75 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$, $c_2 = 3,5 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$, zanjir roligidagi qayishqoq vtulka TMKII-C1009 markali rezinadan tayyorlash va baraban valining burchak tezlik qiymatida $\omega_b = 0,26 \frac{rad}{sek}$, qiymatda bo'lishi taklif etildi. Taklif etilayotgan baraban validagi burovchi momentning o'rtacha qiymati $M_{o'rt} = 2920 Nm$ va uning o'zgarish qamrov qiymati $\Delta M = 202 Nm$ ni tashkil etganda chigitni ta'minlanish ko'rsatkichi optimal darajada bo'lishi aniqlandi. Taklif etilayotgan vibratsion baraban katta prujinasi bikirligining baraban validagi burovchi moment qamrov qiymatiga bog'liqlik grafigi 12-rasmda keltirilgan.



12-rasm. Texnologik qarshilik momenti qiymatini o'zgarishini baraban validagi burovchi moment qamrov qiymatiga bog'liqligi

Mavjud barabanda burchak tezlikning minimal qiymati $30,1 \cdot 10^{-2} \frac{rad}{sek}$, maksimal qiymati $31,2 \cdot 10^{-2} \frac{rad}{sek}$, tebranish qamrovi $\Delta\omega_b = 0,8 \cdot 10^{-2} \frac{rad}{sek}$ tashkil etgan bo'lsa, bikrligi yuqori bo'lgan prujinani joriy etishdan natijasida vibratsion baraban validagi burchak tezlikning minimal qiymati $29,1 \cdot 10^{-2} \frac{rad}{sek}$, maksimal qiymati $31,9 \cdot 10^{-2} \frac{rad}{sek}$ ni tashkil etda. Bu esa burchak tezlik qamrov qiymati $\Delta\omega_b = 1,8 \cdot 10^{-2} \frac{rad}{sek}$ bo'lishini hamda mavjud barabanga nisbatan burchak tezlik o'zgarish qamrov qiymatini 1,64 martaga ortganiga izoh bo'ladi. Olingan nazariy va tajribaviy qiymatlar solishtirilganda, ularning maksimal farqi, ya'ni ta'minlash barabani valining burchak tezligi tebranish qamrovi qiymatlari farqi 1,88 martani tashkil etdi. 13-rasmda texnologik qarshilikning ortishini mavjud va taklif etilgan baraban validagi burchak tezlik qamrov qiymatining o'zgarishiga bog'liqlik grafiklari keltirildi.



13-rasm. Texnologik qarshilik qiymatini ortishini baraban vali burchak tezlik qamrov qiymatiga bog'liqligi

Taklif etilayotgan ta'minlash barabanini ishlab chiqarishga joriy etish orqali olingan qiyosiy tahlil natijalari 2-jadvalda keltirildi.

Taklif etilayotgan barabanning qiyosiy tahlil natijalari

No	Ta'minlash qurilmasi barabani	Ta'minlash barabanning aylanishlar soni ayl $n_b, \frac{min}{ayl}$	Ta'minlash unumdorligi, $tonna/soat$	Kunlik (3 smena, 7 soat) mahsulotni ta'minlash ko'rsatkichi, $tonna$	Yillik mahsulotni ta'minlash ko'rsatkichi, $tonna$	yillik ta'minlash jarayonidagi uzilish vaqti, $soat$
1.	Mavjud barabanli	2	4,5	83,25	21 299,2	384
	Vibratsion barabanli		5,1	107,1	27 417,6	17
2.	Mavjud barabanli	2,5	5,6	103,6	26 368,0	384
	Vibratsion barabanli		6,4	134,4	34 406,4	19
3.	Mavjud barabanli	3	6,7	123,95	31,731	384
	Vibratsion barabanli		7,6	159,6	40 857, 6	21

Jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki, taklif etilayotgan barabanning vibratsion harakatlanishi natijasida baraban plankalari oraliqlarini to'lish ko'rsatkichi intensivlashadi. Shu bilan birga, bunkerdagi chigitning oqimini chiqimini chiqish teshigi tomon harakati uzviyligi ishonchli ta'minlanadi. Bu esa, o'z navbatida ta'minlash qurilmasining ish unumi ko'rsatkichi darajasini oshiradi.

Chigitni ta'minlash qurilmasiga vibratsiyalanuvchi baraban va tarkibli rolikli zanjirli uzatmani qo'llash natijasidagi yillik iqtisodiy samaradorlik 312 851 202,0 so'mni tashkil etdi.

XULOSA

1. O'simliklardan yog' ishlab chiqaruvchi korxonaning texnologik mashinalari ishlash xususiyatlarini inobatga olgan holda, linterlash mashinalariga chigitni ta'minlash agregati uchun o'qim parametrlarini optimal ta'minlovchi baraban va uni harakatga keltiruvchi zanjirli uzatma konstruksiyalarini ishlab chiqish vazifalari belgilanadi.

2. Bugungi kunda yetishtirilayotgan 5 turdagi yuqori navli tukli chigitlarni fizik-mexanik xossalari aniqlandi: nisbiy namlik $M_n = 9,4383\%$; chigitning o'rtacha uzunligi $l_{ch} = 9,65 \text{ mm}$; eni $b_{ch} = 5,37 \text{ mm}$; qalinligi $h_{ch} = 5,40 \text{ mm}$; o'rtacha geometrik diametri $D_g = 6,54 \text{ mm}$; o'rtacha arifmetik diametri $D_a = 6,8 \text{ mm}$; hajmi $V_{ch} = 147,2 \text{ mm}^3$; sferikligi $\Phi = 67,80\%$; yassi yuzasi $A_f = 43,22 \text{ mm}^2$; ko'ndalang sirt yuzasi $A_t = 22,82 \text{ mm}^2$; kontakt yuzasi $C_{ch} = 46,46 \text{ mm}^2$; sirt yuzasi $A_{ch} = 131 \text{ mm}^2$; bir dona chigitning o'rtacha massasi $m_{ch} = 0,1102 \text{ g}$; hajmiy zichligi $\rho_h = 0,4696 \text{ g/cm}^3$; haqiqiy zichligi $\rho_x = 1,086 \frac{\text{g}}{\text{cm}^3}$; g'ovaksimonligi $P_f = 56,45\%$; proyeksiya yuzasi $47,35 \text{ mm}^2$; muvozanat burchagi $\phi = 46^{\circ}40'$, statik ishqalanish koeffitsienti, yumshoq po'latda $\mu = 0,34$; fanerada $\mu = 0,36$ va shishada $\mu = 0,23$ ni tashkil etdi. Shuningdek, tukli chigitlarning o'rtacha yorilish kuchi $F = 61,24 \text{ N}$ ni tashkil etgan bo'lsa, deformatsiya nisbatining o'rtacha qiymati 4,32% ga tengligi aniqlandi.

3. Chigitni ta'minlash qurilmasi uchun yangi vibratsion harakatlanuvchi baraban va uni harakatga keltiruvchi zanjirli uzatmaning samarali konstruksiyasi ishlab chiqildi.

4. Laboratoriya sinov natijalariga ko'ra taklif etilayotgan vibratsion baraban ta'minlash qurilmasiga joriy etilganda, mahsulotni yillik ta'minlash ko'rsatkichi ($n_b = 3 \text{ ayl/min}$) 40857,6 tonnani tashkil etib, yillik ish unumdorligi mavjud barabanli qurilmaga nisbatan (mavjud barabanda 31731 tonna) 29% ga ortganligi aniqlandi. Shuningdek, tavsiya etilgan qayishqoq elementli zanjirli uzatma ish resursi 15% ortishi, zanjir bo'lagining nisbiy uzayishi 1,2%ni tashkil etishi aniqlandi.

5. Taklif etilgan ta'minlash barabanida chigitni uzatish imkoniyatini ifoda etuvchi formulalar olindi. Texnologik jarayonning optimal parametrlarini sonli qiymatlari asosida bunker chiqish teshigida yuzaga keluvchi bosim (47,336 kPa), ta'minlash barabaniga ta'sir etuvchi yuklanish (51,43 kN), chigit qatlamini kesuvchi kuch (20,57 kN), agregatning ta'minlash unumdorligi hamda quvvat parametrlari aniqlandi.

6. Ta'minlash qurilmasi yuritmasining kinematik hisobi amalga oshirildi. Qurilma uchun elektrovigatel: АИР-32М8, P=5,5 kVt, n=719 min^{-1} bo'lishi tavsiya etildi. Ishlab chiqarish parametrlari asosida tarkibli rolikli zanjirli uzatma parametrlari aniqlanib, zanjir qadami $t = 44.45 \text{ mm}$ bo'lishi tavsiya etildi.

7. Baraban konstruksiyasini sxematik hisob sxemesi ishlab chiqilib, mexanik tizim uchun matematik-dinamik model olindi. Sonli yechim asosida baraban bo'laklarini bir-biriga bog'lovchi prujina bikirliklari $c_1 = 1,75 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$, $c_2 = 3,5 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$ bo'lishi, bunda tebranish chastotasi $w = 42.11 \text{ Hz}$, amplitudasi $A_b = 0,1 \text{ rad}$ bo'lishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

8. Chigitni ta'minlash qurilmasining quvvat parametrini avtomatik nazorat qilishning interfeys dasturi ishlab chiqildi.

9. Tajribaviy usulda ta'minlash qurilmasiga vibratsion baraban va uni harakatga keltiruvchi tarkibli rolikli zanjirli uzatma qo'llanilganda, baraban validagi burovchi moment va burchak tezlikni o'zgarish qonuniyatlari texnologik qarshilik, prujinalar bikirligi hamda tarkibli rolik qayishqoq elementi bikrligiga bog'liq bo'lishi

10. Texnologik yukanish $M = 2,5 \cdot 10^3 \text{ Nm}$ bo'lganda, prujinalar bikirligi $c_1 = 1,75 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$, $c_2 = 3,5 \cdot 10^5 \frac{N}{m}$, zanjir roligidagi qayishqoq vtulka TMKIII-C1009 markali rezinadan bo'lishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Bunda texnologik qarshilik momentining qamrov qiymati $\Delta M = 184 \text{ Nm}$, $\Delta \omega_b = 1,2 \cdot 10^{-2} \text{ s}^{-1}$ ni tashkil etib, agregat ta'minlash unumdorligi yuqori bo'lishi aniqlandi. Taklif etilgan barabanda mavjud barabanga nisbatan burchak tezlik o'zgarish qamrov qiymatini 1,64 martaga ortishi aniqlandi.

11. Tukli chigitni ta'minlash agregatiga vibratsion baraban va tarkibli rolikli zanjirli uzatma joriy etilganda, mavjud agregatga nisbatan yillik iqtisodiy samaradorlik 312 851 202 so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.09.2023.Т.66.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

АЛИЕВ ЭЛМУРОД БОТИРЖАНОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОЙ КОНСТРУКЦИИ И ПАРАМЕТРОВ
БАРАБАНА ПИТАНИЯ СЕМЯН**

05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроника и робототехнические системы

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2024.2.PhD/T4673

Диссертация выполнена в Наманганском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме) на сайте Ученого совета и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель :

Мамаханов Азам Абдумажитович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты :

Сайидмуродов Мирзохид Мирзахимович
доктор философии по техническим наукам,
доцент

Турдалиев Вохид Максудович
доктор технических наук, профессор,

Ведущая организация :

Андижанский машиностроительный институт

Защита диссертации состоится «2» мая 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.09.2023.T.66.01 по присуждению ученых степеней при Наманганском инженерно-технологическом институте (Адрес: 160115 , г.Наманган, улица Косонсой, дом 7. Телефон: +998 69 228 -76-75; факс: +998 69 228-76-71; электронная почта: niei_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Наманганского инженерно-технологического института (регистрационный номер 380). (Адрес: 160115, Наманганский ш., улица Косонсой , 7. Тел.: +998 69 228-76-75; факс: +998 69 228-76-71).

Автореферат диссертации разослан «16» апреля 2025 года.
(Протокол реестра № 29/3 от «22» февраля 2025 года)

А.М.Махкамов

Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней
доктор технических наук, доцент

Ш.А.Махсудов

Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
философии по техническим наукам, доцент

Н.М.Сафаров

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (автореферат диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Во всех отраслях машиностроения мира создание и применение ресурсосберегающих, высокопроизводительных и конкурентоспособных технологических машин и механизмов с эффективной конструкцией занимают одно из ведущих мест. Учитывая, что «Во всем мире существует возможность достижения экономической эффективности за счёт внедрения энергосберегающих технологических машин, работающих на основе автоматических систем управления»², становится очевидной необходимость создания надёжно работающих и эффективных питающих устройств, а также совершенствования приводных передач, применяемых в технологических процессах. С этой точки зрения создание питающих устройств с устойчивой производительностью и энергосберегающими характеристиками, а также широкое применение цепных передач с эластичными элементами, снижающими ударные нагрузки, в их приводах имеет важное значение.

Бурное развитие машиностроения в мире направлено на создание надёжных, ресурсосберегающих питающих устройств, а также на разработку видов цепных передач с широкими кинематическими и динамическими возможностями. Ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку фундаментальных основ их расчёта. Особое внимание уделяется созданию конструкций подающих устройств с высокой и точной производительностью, а также снижению трения, износа, шума и вибраций в цепных передачах. В частности, акцент делается на разработку конструкций составных цепных передач с эластичными элементами, адаптирующихся к технологическому процессу, применяемых в приводах различных технологических машин масложировой промышленности, и на обоснование их технических параметров.

В Республике Узбекистан реализуются масштабные меры по ускоренному развитию машиностроения, проведению глубоких фундаментальных и прикладных исследований, направленных на создание новых эффективных типов ресурсосберегающих конструкций машин и механизмов, что уже приносит определённые результаты. В частности, особое внимание уделяется разработке эффективных, ресурсосберегающих конструкций подающих устройств, а также новых конструкций цепных передач с широкими кинематическими и динамическими возможностями для приводных механизмов. В Стратегии развития «Нового Узбекистана» на 2022–2026 годы определены важные задачи, в том числе: «...снижение потерь в отраслях промышленности и повышение эффективности использования ресурсов». В реализации этих задач особую значимость приобретает создание энергосберегающей и ресурсосберегающей конструкции питающего устройства для масложировой промышленности, а также разработка фундаментальных основ проектирования новых перспективных конструкций составных цепных передач с эластичными

² <https://www.usaid.gov/energy/efficiency/basics/technologies>

элементами для приводных механизмов. Настоящая диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в нормативно-правовых актах, регулирующих данную сферу деятельности, в том числе: Постановлении Президента Республики Узбекистан от 30 ноября 2017 года № ПП-416 «О создании Министерства инновационного развития Республики Узбекистан», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 января 2018 года № ПП-3484 «О мерах по ускоренному развитию масложировой отрасли», а также Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 12 января 2018 года «О мерах по созданию эффективных механизмов внедрения научно-инновационных разработок и технологий в производство».

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики - II «Энергетика, энерго-ресурсосберегающие технологии, ресурсосбережение».

